



TIJORAT BANKLARINING XALQARO TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA BANK EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB YO'NALISHLARI

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0000-0003-0830-5119
abbos85@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank ekotizimi tushunchasi, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining zamonaviy modeli sifatida "bank ekotizimi"ni yaratish, tijorat banklarining raqamli transformatsiyalashuv jarayonlari yoritib berilgan. Bank ekotizimini tashkil qilish asosida bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirish, bank nufuzini oshirish, iqtisodiy munosabatlarning jadal sur'atlar bilan raqamlashuvi mijozlarga keng turdagi bank va nobank moliyaviy xizmat turlarini taklif qilishni kengaytirish orqali bank sohasining o'ziga xos moliyaviy "supermarket"ga aylantirishda bank ekotizimining o'rni keltirilgan. Maqolada zamonaviy raqamli moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan tijorat banklari faoliyatida raqobatning kuchayishiga olib kelishga imkon beradigan ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ekotizim, bank ekotizimi, biznes-model, marketpleys, raqamli bank servisi.

АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ БАНКОВСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОЦЕССОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Бекмуродов Аббос Амириддинович
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие банковской экосистемы, создание "банковской экосистемы" как современной модели международных трансформационных процессов в деятельности коммерческих банков Узбекистана и процессы цифровой трансформации коммерческих банков. Приведены роль банковской экосистемы в превращении банковской отрасли в своеобразный финансовый "супермаркет" путем радикального изменения взаимоотношений между банком и клиентом на основе организации банковской экосистемы, повышения престижа банка, быстрой оцифровки экономических отношений, расширения предложения широкого спектра банковских и нефинансовых услуги клиентам. В статье выдвинуты научные предложения, которые при широком внедрении современных цифровых финансовых технологий позволят привести к усилению конкуренции в сфере банковской деятельности.

Ключевые слова: экосистема, банковская экосистема, бизнес-модели, маркетплейс, цифровой банковский сервис.

CURRENT TRENDS IN THE FORMATION OF THE BANKING ECOSYSTEM IN IMPROVING THE PROCESSES OF INTERNATIONAL TRANSFORMATION OF COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

Bekmurodov Abbas Amiriddinovich
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article examines the concept of a banking ecosystem, the creation of a "banking ecosystem" as a modern model of international transformation processes in the activities of commercial banks in Uzbekistan and the processes of digital transformation of commercial banks. It is presented the role of the banking ecosystem in turning the banking industry into a kind of financial "supermarket" by radically changing the relationship between the bank and the client based on the organization of the banking ecosystem, increasing the prestige of the bank, rapid digitization of economic relations, expanding the offer of a wide range of banking and non-financial services to customers. The article puts forward scientific proposals that, with the widespread introduction of modern digital financial technologies, will lead to increased competition in the field of banking.

Keywords: ecosystem, banking ecosystem, business models, marketplace, digital banking service.

Kirish.

Jahonda innovatsion moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va faoliyatning raqamlashuvi tijorat banklari nafaqat daromadini oshirishga, balki mijozlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va iste'mol qimmatini oshirish imkonini beruvchi yangi xizmat turlari, bank mahsulotlarining paydo bo'lishiga, tijorat banklari faoliyatining postindustrial jamiyatga xos o'zgarishlariga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasida ham milliy iqtisodiyotning bank-moliya tizimi eng jadal rivojlanayotgan va ilg'or texnologik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Rossiya iqtisodiyotining bank sektori moliya sektorining ajralmas qismi va lokomotivi sifatida yeng yirik va rivojlangan sohalardan biridir. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan chakana va korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan aksariyat xizmatlar raqamli muhit negizida yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ulardan keng foydalanish orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda an'anaviy bank tizimi va faoliyat tamoyillari inson omilining salbiy ta'sirini yuqori darajada kamaytirishga qaratilgan xo'jalik yuritishning yangi biznes-modellarga tobora jadal transformatsiyalashmoqda. Tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining zamonaviy modellaridan biri "bank ekotizimi" hisoblanadi. Bu borada Zamonaviy raqamli moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etish asosida tijorat banklari faoliyatida bank ekotizimini tashkil qilish bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda "ekotizim" tushunchasi Murning (1993) tadqiqotlaridan qo'llanilgan bo'lib, "...iqtisodiy sub'ektlar ma'lum sohaning alohida ishtirokchilari sifatida emas, balki biologik ekotizim kabi turli sohalardagi iqtisodiy sub'ektlardan tashkil topgan biznes ekotizimining ishtirokchilari sifatida qaralishi lozim. Chunki innovatsiya, kooperatsiya va raqobat nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak ular ham taraqqiyot jarayonida bir-biriga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi".

Adner (2017) tomonidan ekotizimlarni o'rganish affillanganlik va tuzilmaviy yondashuvga ko'ra tadqiq qilingan. Uning fikriga ko'ra "...ekotizim turli sohalarga mansubligiga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlarining an'anaviy chegaralaridan chetga chiqqan holda va yagona tarmoq ichida ham, tarmoqlararo darajada ham iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi

o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik munosabatlarining rivojlanishiga turtki beradi. Tuzilmaviy yondashadigan bo'lsak, ekotizim, asosiy e'tiborni iqtisodiy faoliyatda qo'shimcha qiymat taklifini yaratishni va ma'lum bir qiymat taklifiga erishish maqsadida o'zaro aloqador bo'lgan ishtirokchilarni o'rganishga qaratadi".

RF olimi Tarxanova va boshqalarning (2023) ilmiy ishlarida bank ekotizimi "...tijorat banklarida biznes ekotizimlarni joriy qilish, foydalanuvchilar haqida juda ko'p ma'lumotlarni onlayn va oflayn rejimda to'plash hamda qayta ishlashga, mavjud bo'lgan har qanday kanallar orqali samarali aloqalarni o'rnatishga imkon beradigan AT-tizimlarning yetarli darajada rivojlanganligi va ko'plab xizmatlarni masofadan turib taqdim etish imkoniyatini yaratishi" tarzida bayon etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan Umrzoqovanning (2021) tadqiqotlarida "raqamli innovatsiyalar" tushunchasining mohiyati ochib berilgan, tijorat banklarida internet aloqasini joriy xolati o'rganilgan hamda raqamli banklarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Ro'ziyevning (2022) ilmiy ishlarida banklar faoliyatini transformatsiya qilishda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni, bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanishning ahamiyati va istiqbollari xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida tahlil qilingan.

Muallifning fikriga ko'ra, "...bank ekotizimi yordamida bank va mijoz o'rtasida jismoniy kontaktsiz aloqa o'rnatilib, moliyaviy operatsiyalar (elektron tijorat) "inson omili"siz amalga oshiriladi" (Ro'ziyev, 2022).

Tadqiqotchi Gulyamovanning (2022) ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, yangi bank mahsulotlarini taklif qilishda innovatsion faoliyatni tashkil etish hamda moliyaviy texnologiyalarga investitsiya kiritib, moliyaviy xizmatlarning innovatsion loyihalarini bilan bog'liq holatlar ko'rib chiqilgan bo'lib, ilg'or xorij tajribasi asosida "...o'zaro munosabatlar marketingi va mijozlarining ehtiyojlarini anglash asosida tijorat banklari o'zlarining ekotizimlarini yaratish, bank va mijozlarning turli segmentlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida, standart moliyaviy xizmatlar doirasidan tashqariga chiqib, ekotizim yo'nalishlarini ishlab chiqish" lozimligi ta'kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasi tijorat banklari faoliyatiga xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarini tatbiq etishda bank ekotizimini yaratishda mijozlarning hayotiy vaziyatlar, mijozlar bazasini boshqarish tizimlarini kengaytirish orqali ekotizim yaratish maqsadga muvofiqligiga asoslangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Bunyoga mashhur moliyaviy-iqtisodiy ekotizimlar Amazon, Google, AliBaba, Yandex va Mail.ru kompaniyalari tomonidan yaratilgan va ishlab chiqilmoqda. Ushbu kompaniyalar elektron tijorat, to'lovlar va moliyaviy xizmatlar bozoriga, Yandex esa tezkor yo'lovchi tashish, yetkazib berish va savdo sohasiga juda chuqur kirib borishgan (Pehnev-Podolskiy, 2019).

Bank ekotizimlarini yaratish - bu avvalo tijorat banklari tomonidan mijozlarning ehtiyojlarini qondirish borasida bozor (onlayn va offlayn) ishtirokchilari bilan o'zaro raqobat kurashida g'olib chiqishga, bank faoliyatini himoya qilishga qaratilgan o'ziga xos urinish desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni amaliyotda tijorat banklari tomonidan taklif qilinayotgan zamonaviy elektron xizmatlar (e-commerce, e-health, telecom, life-style) va ularni moliyalashtirish, sarmoya kiritish kabilarda ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bank ekotizimi tushunchasiga mualliflik yondashuvi asosida quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Bank ekotizimi – mijozlarga yo'naltirilgan hamda ularning kundalik moliyaviy xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishda multikanalli sotish tizimini qo'llash asosida keng turdagi bank va nobank xizmatlar ko'rsatishni integratsiyalashtirishi, tijorat banklarining "moliyaviy supermarket"ga aylantirish orqali e-commerce, e-health, lifestyle yo'nalishidagi ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish imkonini beruvchi bank xizmatlari ko'rsatish jarayonidir.

Tadqiqotlarga ko'ra, mamlakatimizda tijorat banklari aktivlarning o'sishi bilan nobank kredit tashkilotlari va moliya tashkilotlari sonini kamaytirish tendensiyasi mavjuddir. Bank tizimi uchun dolzarb muammolardan yana biri moliyaviy-iqtisodiy sanksiyalar bosimi bo'lib, tijorat banklarining faoliyatiga, xususan, tashqi moliya bozorlariga kirish imkoniyatini bir muncha cheklaydi. Natijada, bu milliy bank sektorining moliyaviy ko'rsatkichlari va likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi" (Bolotnova, 2022).

O'zbekiston Respublikasi bank sohasida raqamlashtirish va xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlari bank tarmog'ining kengayishi bilan kuzatiladigan saqlash harajatlarini kamaytirishga va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'lar ulushini ko'paytirish imkonini beradi. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida raqamli transformatsiyalashuv jarayonlari aralash model asosida amalga oshirilmoqda. Bunda ochiq (shiriklikdagi ekotizim xizmatlarini yo'lga qo'yish), yopiq (bankning o'z ekotizimini tashkil qilish va xizmatlar ko'rsatish) moliyaviy ilovalar (Alfa-Bank, Gazprombank) va super ilovalarga asoslangan ekotizim (Tinkoff va VTB, Yandex, VK (Mail.ru), Yandex, TBC Bank) larga bog'lanish yo'nalishidagi ekotizimlardan foydalanilmoqda (Pehnev-Podolskiy, 2019). Tijorat banklarining raqamli transformatsiyalashuv jarayonini quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarining raqamli transformatsiyalashuv jarayonini

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ilg'or rivojlangan bank ekotizimlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy banklarning tashkiliy tuzilmasi eng avvalo innovatsion samaraga erishishga asoslangan bo'lishi lozim. Bunday sharoitlarda bank operatsiyalari va bank faoliyatidagi texnologiyalar moliya bozorida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish; institutsional o'zgarishlarni tadqiq qilish; bank va bankga yaqin mahsulotlarni ekotizimga kiritish yoki bankning mobil ilovalariga moslashtirish; pul mablag'larini boshqarish va moliyaviy vositachilikning innovatsion usullari; biznes jarayonlari reinjiningi, mijozlarning bazasini boshqarish va sodiqlik dasturlaridagi innovatsiyalar va shu kabilarni qamrab olishi kerak. Bugungi kunda bank ekotizimining quyidagi shakllaridan keng foydalanilmoqda:


1. **Tashqi ishtirokchilar hamkorligidagi bank ekotizimi (Third-party Ecosystem Participant).** Tijorat banklari bank mahsulotlarini mijozlar bazasini boshqarish tizimlari (CRM)ga taklif qilish orqali tashqi ishtirokchi sifatida boshqa iqtisodiy ekotizimlariga integratsiyalashuvi mumkin. Bunday holda ekotizim umumiy holda bank ekotizimi bo'lmisligi ham mumkin, chunki bunda banklar to'lovlarni amalga oshiruvchi sherik sifatida faoliyat olib boradi

2. **Bank marketpleysi (Market Place Orchestrator).** Mijozlarning kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi umumiy ekotizim (lifestyle banking) bo'lib, uy-joy savdosi, ta'lim, tibbiyot va h.k. sohadagi ehtiyojlarini qondiruvchi alohida ekotizimni aks ettiradi. Mazkur ekotizim orqali bank va mijoz o'rtasida ulviy aloqa o'rnatilib, moliyaviy operatsiyalar yoki elektron tijorat "inson omili"siz amalga oshiriladi. Mijozlarning kundalik turmushga doir ehtiyojlaridan kelib chiqib, banklar nomoliyaviy mahsulotlar, masalan, maishiy texnika, sayohat yoki mobil telefonlarni o'z mijozlariga sotishni yo'lga qo'yishi va shu bilan elektron tijoratni rivojlantirishi mumkin.

3. **Ochiq bank ekotizimi (Open Banking Platform).** Tijorat banklari xizmatlar paketiga turdosh yoki o'zaro to'ldiruvchi moliyaviy xizmatlar takliflarini kiritishi, aksincha – o'z xizmatlaridan tashqari bank xizmatlarini taklif qilishlari mumkin. Bunda, birinchi navbatda, ochiq dastur dasturlash interfeyslaridan (API) foydalanish orqali amalga oshiriladi.

4. **Hayotiy vaziyatlar ekotizimi (Life Moments Orchestrator).** Bunda tijorat banklari o'z mijozlarining muhim hayotiy voqea-hodisalari, unutilmas sanalari, masalan, uy yoki mashina sotib olishi, ba'zi hollarda hattoki uylanish, farzand tug'ilishi, yaqin kishilar vafot etishi yo'nalishida ham xizmatlar taklif qiluvchi o'ziga xos ekotizimini shakllantiradi va o'z mijozlar bazasidan foydalangan holda keng turdagi xizmatlar taklif qiladi.

Albatta, bank ekotizimini yaratish yuqorida sanab o'tilgan afzalliklari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklarga ham egadir. Ekotizim kelgusida o'ziga xos bank konsorsiumiga olib kelishi, bu esa bank xizmatlari bozorida monopollashuvni kuchaytiradi. Shu bilan birga mijozlar bazasining o'ta darajada kengayishi bilan turli soha ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarning sizdirilishi, axborot riskining ortishi mumkin.



2-rasm. Bank ekotizimi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yana bir xatarli jihati mijozlar xulq-atvori va ehtiyojlarining dinamik harakteri kelgusida bank ekotizimining ham muntazam ravishda o'zgarishlarga moslashib borishini taqozo etadi. BCG kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, tadqiqot o'tkazilgan bank ekotizimlarining atigi 15%i uzoq muddatli istiqbolda tashqi muhit o'zgarishlariga to'laqonli moslashishi mumkin. Qolganlari esa o'zluksiz transformatsiyaga uchraydi (Bichkova, 2020).

Bugungi kunda mamlakatimiz bank sohasining moliyaviy xizmatlar bozoridagi mavqei bank-yetakchi, bank-hamkor yoki bank-kuzatuvchi modeliga o'tishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, nafaqat mustaqil bank ekotizimini shakllantirishi, balki tijorat, moliyaviy va texnologik xizmatlar ko'rsatuvchi iqtisodiy sub'ektlar bilan o'zaro hamkorlik qilishiga ham bog'liq. Tijorat banklari tomonidan mustaqil ekotizimga ega bo'lgan holda mijozlarga bir vaqtning o'zida bank-yetakchi yoki bank-hamkor tamoyiliga ko'ra omni-, multikanalli sotish tizimini qo'llash asosida bank mahsuloti va xizmatlarining butun hayotiylik davri mobaynida keng turdagi bank va nobank xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq (2-rasm).

Fikrimizcha, bank ekotizimini tashkil qilish bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirishi, bank nufuzini oshirishning drayveriga aylanishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy munosabatlarning jadal sur'atlar bilan raqamlashuvi mijozlarga keng turdagi bank va nobank moliyaviy xizmat turlarini taklif qilishni kengaytirish orqali bank sohasining o'ziga xos moliyaviy "supermarket"ga aylanishiga turtki beradi. Zamonaviy raqamli moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan tijorat banklarining nomoliyaviy tuzilmalar bilan raqobatlashuvining kuchayishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi xalqaro moliya bozorlaridagi kuchli raqobatga qaramasdan o'zining raqobat pozitsiyalarni shakllantirishga ma'lum darajada erishmoqda. Shu bilan birga, xalqaro raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirish borasida bank ekotizimini rivojlantirish, bank filiallarda yangi infratuzilmaviy yechimlarini joriy etish lozim;

Kredit skoringi bank xavfsizligini kamaytirish, kredit riski darajasini optimallashtirish; mobil bank ilovalari bozorini shakllantirish; mijozlarga sodiqlik dasturlarini ko'paytirish;

Iste'mol kreditlari, investitsiyalar kiritish, sug'urta, shaxsiy moliyani rivojlantirish, moliyaviy menejment va buxgalteriya sohasida yangi bank mahsulotlarini taklif qilish.

Bank faoliyatining mavjud biznes modellarini, bank xizmati, mahsuloti va biznes-jarayonlarga doir innovatsiyalarini kiritish orqali rivojlantirish;

yangi mijozlar (hamkor kompaniyalar, "Fintech" kompaniyalari, mobil ilova foydalanuvchilari)ni keng jalb qilish, mijozlarni mobil ilovalar, avtoto'lovlar va on-layn platformalar orqali ko'proq bank xizmatlaridan foydalanishga undash.

"O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish"ga asoslangan mijozlar bilan o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini yaratish va mijozlarning iste'mol tajribasini bank amaliyotiga monand ravishda o'zgartirishga erishish.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Adner R. (2017). *Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy*. *Journal of Management*, vol. 43, no 1, pp. 39–58. DOI: <https://doi.org/10.1177/0149206316678451>.

Moore J. F. (1993) *Predators and prey: a new ecology of competition*. *Harvard Business Review*. 71(3).

Болотнова Е.А., Храменко А.А., Журавлева Т.В., Денисова Е.А. (2022) *Экосистемы в банковской системе РФ: проблемы и перспективы // ЕГИ. №39 (1)*. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekosistemy-v-bankovskoy-sisteme-rf-problemy-i-perspektivy>.

Бычкова И.И. (2020) *Банковская экосистема: современные тренды в финансовой сфере // Научный вестник Южного института менеджмента. №1. С. 42-46*. <https://doi.org/10.31775/2305-3100-2020-1-42-46>.

Гулямова, А.Л. (2022) Банк хизматларида рақамли технологиялар ва рақамли экотизим. *Мoliya va Bank ishi Jurnal* 3, 91-96.

Пешнев-Подольский Д., Хайруллин С. (2019) Тренды развития банковских экосистем [Электронный ресурс]: <https://vc.ru/bcs-bank/108343-trendy-razvitiya-bankovskih-ekosistem>.

Рўзиев, Н. (2022). Тижорат банклари фаолиятини трансформация қилишда рақамлаштириш ва рақамли технологияларнинг туган ўрни. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(4), 60–73. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a565.

Тарханова Е.А., Борисов Д.С., Тарханова А.В., Фрицлер А.В. (2023) Банковские экосистемы: сущность, типология и современные подходы к регулированию в России // *Экономика, предпринимательство и право*. – Том 13. – № 6. – С. 1877–1888. doi: 10.18334/err.13.6.117771.

Умрзоқова Адиба Очиловна (2021) Тижорат банкларида рақамли хизматларни ривожлантириш йўналишлари // *Scientific progress*. №1. <https://cyberleninka.ru/article/n/tizhorat-banklarida-ra-amli-hizmatlarni-rivozhlantirish-y-nalishlari>.